QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 5-son)

IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i05.035

MUSTAQILLIKNING ILK YILLARIDA O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SHAHARSOZLIK VA URBANIZATSIYA JARAYONLARI

Tursunov Anvar Saypullayevich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
avar061484@gmail.com
UDK: 325.111 (575.1) (091)
https://orcid.org/0009-0009-3517-1305

Annotatsiya. Maqolada mustaqillikning ilk yillarida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida shaharsozlik, urbanizatsiya hamda ma’muriy boshqaruv islohotlari arxiv manbalari asosida tahlil qilingan. Shaharlarning demografik tasnifi, toponimik o‘zgarishlar, shahar va tuman hokimliklarini birlashtirish orqali boshqaruvni optimallashtirish hamda shahar ma’muriy chegaralarining kengayishi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shaharsozlik, urbanizatsiya, Janubiy O‘zbekiston, hokimlik instituti, optimallashtirish, ma’muriy chegara.

Аннотация. В статье на основе архивных источников анализируются процессы градостроительства, урбанизации и реформирования административного управления в первые годы на примере Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей. Рассматриваются демографическая классификация городов, топонимические изменения, оптимизация управления путем слияния городских и районных хокимиятов, а также расширение границ городов.

Ключевые слова: градостроительство, урбанизация, Южный Узбекистан, институт хокимията, оптимизация, административная граница.

Abstract. Based on archival sources, the article analyzes the processes of urban planning, urbanization, and administrative management reforms in the early years of independence using the example of the Surxondaryo and Qashqadaryo regions. It covers the demographic classification of cities, toponymic changes, administrative optimization through the merger of city and district khokimiyats, and the expansion of urban borders.

Keywords: urban planning, urbanization, Southern Uzbekistan, khokimiyat institution, optimization, administrative boundary.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asr oxirida O‘zbekiston shaharlarining ahamiyati ortib bordi. Shaharlar kengayib, aholi uchun yangi turar-joylar va boshqa kommunal xizmat infratuzilmalarini yaratila boshlandi. Shu jarayonda O‘zbekiston shaharlari tarixida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu eng avvalo, uning huquqiy maqomi o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan shaharlarning kengayishiga aloqador edi. Yangi davrda shaharsozlikni rivojlantirish va uni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etgan edi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O‘zbekiston Respublikasi “Shaharsozlik kodeksi”ning 12-moddasiga ko‘ra, aholining soniga qarab shaharlar quyidagilarga bo‘linadi:

eng yirik — aholisining soni bir milliondan ortiq kishidan iborat;

yirik — aholisining soni ikki yuz ellik mingdan bir milliongacha kishidan iborat;

katta — aholisining soni yuz mingdan ikki yuz ellik minggacha kishidan iborat;

o‘rtacha — aholisining soni ellik mingdan yuz minggacha kishidan iborat;

kichik — aholisining soni ellik minggacha kishidan iborat bo‘lgan shaharlar.

Aholining soniga qarab shaharchalar quyidagilarga bo‘linadi:

katta — aholisining soni yigirma mingdan ortiq kishidan iborat;

o‘rtacha — aholisining soni o‘n mingdan yigirma minggacha kishidan iborat;

kichik — aholisining soni o‘n minggacha kishidan iborat bo‘lgan shaharchalar[1].

Yuqoridagilarga asosan birinchi guruhga O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahri; ikkinchi guruhga Namangan, Samarqand, Andijon, Nukus, Farg‘ona, Qarshi, Buxoro, Qo‘qon shaharlari; uchinchi guruhga Marg‘ilon, Termiz, Angren, Jizzax, Chirchiq, Navoiy, Urganch, Shahrisabz, Olmaliq, Denov, Bekobod, Asaka shaharlari; to‘rtinchi guruhga Quvasoy, Beruniy, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Shahrixon, Kogon, Koson, Zarafshon, Kattaqo‘rg‘on, Toyloq, Urgut, Guliston shaharlari; beshinchi guruhga esa respublikadagi qolgan 77 ta shahar kiradi[2].

Shaharsozlik kodeksida ko‘rsatilgan guruhlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari bo‘yicha tahlil qilinganda quyidagicha bo‘linadi: Birinchi guruhga kiruvchi shaharlar yo‘q. Ikkinchi guruhga Qarshi shahri to‘g‘ri keladi. Uchinchi guruhni Termiz, Shahrisabz va Denov shaharlari tashkil qiladi. To‘rtinchi guruhga Koson va Kitob shaharlari kiradi. Beshinchi guruhga Beshkent, Qamashi, Chiroqchi, Muborak, Yakkabog‘, G‘uzor, Yangi Nishon, Tallimarjon, Boysun, Sherobod, Sharg‘un, Sariosiyo, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on shaharlari mansubdir.

1992-yil 4-yanvarda «O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston viloyat, tuman va shaharlarida hokimlik lavozimi joriy etildi. Mahalliy xalq deputatlari kengashlari sessiyalari yiliga kamida 2 marta o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi[3]. 1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash tomonidan ushbu qonunga Konstitutsiyaviy maqom berildi[4]. Qonun asosida har bir shahar va tumanda mazkur hududni boshqaruvchi hokimlar tayinlandi.

1992-yil 30-aprelda Surxondaryo viloyati hududida shahar tipidagi posyolkalar va qishloqlar tashkil etildi. Shahar tipidagi posyolkalarga: Angor tumanida – Angor; Denov tumanida Xayrabod; Lenin yo‘li (bugungi Qiziriq) tumanida Lenin yo‘li; Sho‘rchi tumanida Elbayon; Qumqo‘rg‘on tumanida Navobod posyolkalari; yangi qishloqlarga: Angor tumanida Zang va Birinchi may; Boysun tumanida Avlod; Denov tumanida Bandixon va Yangi zamon; Jarqo‘rg‘on tumanida Chorjo‘y; Qumqo‘rg‘on tumanida Boymoqli, Ketmon, Kirshak; Lenin yo‘li tumanida Olmazor, va Mehnatobod; Oltinsoy tumanida Chep va Xo‘jasoat; Termiz tumanida Xotinrabod; Uzun tumanida Oqostona va Xonjizza; Sho‘rchi tumanida Dalvarzin kiritildi[5].

1992-yil 29-iyulda Uzun aholi punkti Uzun tumaniga bo‘ysunuvchi shahar darajasiga o‘tkazildi. Shu munosabat bilan hozirgi Uzun markazi Yangi ro‘zg‘or aholi punktiga ko‘chirildi[6].

Mustaqillikning ilk yillarida shahar va tumanlarda sovet davriga xos bo‘lgan atamalardan butunlay voz kechish talab qilinar edi. Jumladan, 1992-yil 6-mayda Qashqadaryo viloyati Ulyanov tumanining nomi Kasbi deb, Ulyanovsk aholi punkti esa Mug‘lon deb o‘zgartirildi[7].

Xuddi shunday o‘zgarishlar Surxondaryo viloyatida ham o‘tkazildi. Chunonchi, 1992-yil 25-avgustda Lenin yo‘li tumanidagi Lenin yo‘li qo‘rg‘onining nomi Sariq, tuman nomi esa, Qiziriq deb, Gagarin tumanining nomi Muzrabot deb o‘zgartirildi[8].

Qashqadaryo viloyati Muborak shahri aholisi soni 20 mingga yaqin ekanligi hamda shahar va tuman uchun bitta boshqaruv – hokimlik bo‘lishi hisobga olinib 1992-yil 1-mart kuni tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga o‘tkazildi[9].

Shu bilan birga, Muborak shahar ishlab chiqarish infratuzilmasi tuman xalq xo‘jaligi bilan bir butunligi, ularni o‘zaro ajratib bo‘lmasligi shahar va tuman uchun bitta boshqaruv idorasi bo‘lishini taqozo etdi. Negaki, takrorchilik shahar va tuman tashkilotlari o‘rtasida turli ziddiyatlarni keltirib chiqarib, vaziyatni keskinlashtirar edi. Shuning uchun 1992-yil 4-sentyabrda Muborak shahrining maqomini o‘zgartirmagan holda tuman va shahar uchun bitta hokimlik joriy etildi. Xalq deputatlari Muborak shahar kengashi, rayosatining Ijroiya Qo‘mitasi, Kengash raisi, rais o‘rinbosarlarining vakolatlari tugatildi[10].

Boshqaruvni optimallashtirish jarayoni keyingi yillarda ham davom etdi. Boshqaruv va ijroiya ishlarini takomillashtirish, shahar va tuman hududida olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1993-yil 17-noyabrda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani markazi bo‘lgan Beshkent shahrining boshqaruvi tuman hokimligi bilan, Chiroqchi, Yakkabog‘, Yangi Nishon, Qamashi, G‘uzor shaharlarining boshqaruvi tuman hokimliklari bilan birlashtirildi[11].

Shu davrda shaharlarning ma’muriy chegarasini belgilash bo‘yicha ham qator ishlar olib borildi. Qashqadaryo viloyat hokimining 1993-yil 22-sentyabrdagi X-332/9-son qaroriga ko‘ra, Beshkent shahar bosh rejasi doirasida joylashgan Yuqori Beshkent, Quyi Beshkent va Xitoykent aholi turar-joylaridagi qurilishlarni nazorat qilish, obodonlashtirish, tartibga solish va qayta rejalashtirish maqsadida Qarshi tumanidagi “Moskva” davlat xo‘jaligidan 764,3 gektar,

“O‘zbekiston mustaqilligi” davlat xo‘jaligidan 26,4 gektar, jami 790,7 gektar yer ajratildi. Yuqori Beshkent, Quyi Beshkent va Xitoykent aholi turar-joylarini o‘rni 324,7 gektar bo‘lib, aholisi 5687 kishidan iborat bo‘lgan[12].

Shahrisabz shahri aholisi o‘sib borishi tufayli ko‘plab mitti tumanlar, madaniy-maishiy va boshqa obyektlarni qurish avj oldi. Shu qurilishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1994-yili “Uzdavrloyiha” ilmiy-loyihalash institutining Qarshi bo‘limi taqdim qilgan hujjatlar asosida Shahrisabz shahrining chegarasi ishlab chiqildi. Unga asosan shaharning 2005-yilgacha bo‘ladigan ma’muriy chegarasi Shahrisabz tumanining 6 ta xo‘jaliklari hududidan jami 1475,5 gektar yerni ajratish hisobiga belgilandi[13].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-sentyabrdagi 459-son “Shahar va tumanlar hokimlari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Denov shahar hokimligi Denov tuman hokimligiga bo‘ysundirildi va bitta boshqaruv organlari tuzildi. Denov shahar Hokimi Denov tuman Hokimining birinchi o‘rinbosari – shahar hokimi etib belgilandi[14]. Xuddi shu qaror asosida Shahrisabz shahar hokimligi tuman hokimligi bilan birlashtirildi[15:89-90].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda, mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston janubiy viloyatlarida amalga oshirilgan shaharsozlik va ma’muriy islohotlar bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan zamonaviy urbanizatsiya siyosati, hududlarni rejalashtirish va mahalliy boshqaruvni takomillashtirish jarayonlari uchun muhim tarixiy tajriba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси. 2021 йил 23 май куни кучга кирган // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.06.2022 й., 03/22/775/0477-сон.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O‘zbekiston_shaharlari
3. “Халқ сўзи” газетаси, 1992 йил 4 январь. №3 (254).
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й.,4-сон, 181-модда.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 29-ish, 45-46-varaqlar.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 31-ish, 155-varaq.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish, 14-varaq.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 32-ish, 90, 97,106-varaqlar.
9. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro‘yxat, 24-ish, 25-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro‘yxat, 32-ish, 6-7-varaqlar.
11. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro‘yxat, 66-ish, 109-114-varaqlar.
12. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro‘yxat, 64-ish, 82-85-varaqlar.
13. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro‘yxat, 95-ish, 73-74-varaqlar.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 491-ish, 201-varaq.

15. Kamalova H.M. XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida Shahrisabz shahri tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Qarshi, 2024. –B. 89-90.